

**BITIM VA SHARTNOMA TUSHUNCHASINING O'XSHASH VA
FARQLI JIHATLARI**

*Ubaydullayev Doston Akbar o‘g‘li
Toshkent viloyati yuridik texnikumi
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bitimlar va shartnomalarning asosiy o‘xshash va farqli jihatlari, ularni tushunishda yuzaga kelayotgan ziddiyatlar va muammolar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu maqoladan fuqarolik huquqi sohasini o‘rganayotgan talabalar va o‘quvchilar shuningdek amaliyotchi huquqshunoslar foydalanishlari mumkin*

Kalit so‘zlar: *bitim, shartnoma, ishonchnoma, vasiyatnoma, real bitimlar,, konsensual bitimlar*

KIRISH

Fuqarolik huquqi sohasi huquq sohasi sifatida yurisprudensiyaning boshqa sohalariga qaraganda birmuncha murakkab hisoblanadi. Bu fuqarolik huquqi normalarining keng qamrovliligi hamda unda bir o‘qishda tushunish qiyin bo‘lgan atamalarning boshqa huquq sohalariga qaraganda ko‘proq uchrashi bilan izohlanadi. Bitim va shartnoma tushunchasi ham shular jumlasidandir. Bir qaraganda, ular tushunilishi oddiydek ko‘rinadi, chunki biz mazkur tushunchalarga kundalik hayotimizda ko‘plab marta duch kelamiz. Ammo “bitim nima” yoki “shartnoma nima” degan mazmundagi savol berganimizda huquqiy sohadan xabari bo‘lmagan barcha fuqarolar, hattoki ba’zi huquqshunoslar ham ikki tushunchani farqlay olishmaydi. Biz tomonimizdan tadqiq qilinayotgan masala ham aynan shu mavzuga bag‘ishlangan. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumkin bitim va shartnoma tushunchasini farqlash nazariy va amaliy jihatdan qanday samara berishi mumkin degan mazmunda. Ushbu savolga javobni keyingi o‘rinda berib o‘tamiz

MUHOKAMA

Fuqarolik huquqida bitim va shartnoma tushunchasi juda ko‘p o‘rinlarda yonma-

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yon ishlatiladi. Masalan Fuqarolik kodeksining 102-moddasiga ko‘ra, bitimlar bir taraflama, ikki taraflama va ko‘p taraflama (shartnomalar) bo‘lishi mumkin ... Shartnomalar tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko‘p taraf (ko‘p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo‘lishi kerak. [1] Ushbu moddani tahlil qiladigan bo‘lsak, shartnomalar – bu ikki taraflama yoki ko‘p taraflama bitim ekanligini bilib olishimiz mumkin. Yoki “Birja va birja faoliyati to‘g‘risida” gi qonunni olib qaraydigan bo‘lsak, mazkur qonunning 22-moddasi “Birja bitimi” deb nomlangan. [2] Ushbu moddaga ko‘ra, birja bitimiga quyidagicha ta’rif berilgan: “birja tomonidan ro‘yxatga olingan birja tovari xususida birja savdosining birjada qayd etilgan natijasi bo‘yicha tuzilgan oldi-sotdi shartnomasi birja bitimi hisoblanadi. Ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, bitim tushunchasining ta’rifi shartnomalar so‘zi bilan tugayapti. Boshqacha qilib aytganda, ushbu o‘rinda bitim – bu shartnomadir degan ma’no ifodalanyapti. Mazkur normadan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, birja bitimi bu – oldi-sotdi shartnomasining bir ko‘rinishi.

Fuqarolik huquqi darsliklarida bitimlar mavzusiga kelganda ularga keltiriladigan misollarning ham aksariyati shartnomalardir. Darsliklarda bitimlarning turlari tahlil qilinayotganida bitimlarning ta’rifi keltiriladi, misol keltirilganida ularning aksariyati shartnomalardan iborat bo‘ladi. Masalan real bitimlar – bu tuzilgan deb hisoblanishi uchun bitim narsasining topshirilishi shart bo‘lgan bitimlar hisoblanadi. Ularga misol qilib bank omonati shartnomasi, yuk tashish, yo‘lovchi tashish shartnomasini keltirishimiz mumkin. Haq baravariga tuzilgan bitimlarga oldi-sotdi shartnomasi, mulk ijarasi shartnomasi shartnomasini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Fuqarolik kodeksida bitimning ta’rifi va shartnomaning ta’rifiga e’tibor beradigan bo‘lsak, Fuqarolik kodeksining 101-moddasiga ko‘ra, bitim deb fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o‘zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi. Kodeksning 353-moddasiga ko‘ra, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuviga shartnoma deyiladi. E’tibor beradigan bo‘lsak, bitim va shartnomaga berilgan ta’rif deyarli bir xil. Agar

ikkalasining ta'rifini o'zaro almashtiradigan bo'lsak ham ta'rif to'g'ri bo'laveradi. Ushbu holatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, bitim va shartnoma bir-biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: bir-biriga yaqin tushuncha bo'lsa, ikki xil nom bilan atashning nima keragi bor? Jumlaga e'tibor beradigan bo'lsak, bir-biriga yaqin deyildi, bir xil deyilmadi. Fuqarolik kodeksining normalariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularning o'rtasidagi asosiy farqni tushunib olishimiz mumkin. Kodeksning 102-moddasida quyidagicha norma keltirilgan: bitimlar bir taraflama, ikki taraflama va ko'p taraflama (shartnomalar) bo'lishi mumkin. Ushbu normadan ikki taraflama va ko'p taraflama bitimlarning shartnoma hisoblanishini bilib olishimiz mumkin. Bir taraflama bitimlarga nisbatan bunday qoida uchramaydi. Mazkur moddaning ikkinchi qismida shunaqa qoidalar uchraydi: "Bitim tuzish uchun qonunchilikka yoki taraflarning kelishuviga muvofiq bir tarafning xohishi zarur va yetarli bo'lsa, bunday bitim bir taraflama bitim hisoblanadi. Shartnoma tuzish uchun ikki taraf (ikki taraflama bitim) yoki uch yoxud undan ko'p taraf (ko'p taraflama bitim) kelishib xohish bildirgan bo'lishi kerak".

Bundan kelib chiqadiki, shartnoma va boshqa bitimlarning farqi – shartnoma tuzish uchun ikki taraf kelishuvi bo'lishi kerak. Boshqa turdag'i bitimlar esa bir tarafning xohishi bilan ham tuzilishi mumkin. Bir taraflama bitimlarga misol qilib vasiyatnama, ishonchnoma, ommaviy tanlov, mukofotni oshkora va'da qilish kabilarni keltirishimiz mumkin [3]. Ushbu keltirilgan misollarning hech biri shartnoma emas, balki bitim hisoblanadi. Mazkur bitimlarni tuzilgan deb hisoblashimiz bir tarafning xohish-istagi kifoya qiladi.

NATIJALAR

Yuqorida bitimlar va shartnomalarning o'xhash va farqli jihatlarini ko'rib o'tdik. Bitimlar bir tarafning xohishi bilan ham tuzilishi mumkin, shartnomani tuzish uchun esa kamida ikki taraf xohish bildirishi kerak. Endi shu o'rinda fikr tug'iladi. Ikkita predmetning bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash uchun ushbu ikkita predmet bir-biridan alohida mustaqil tushunchalar bo'lishi kerak. Masalan, qonun va qonunosti hujjatining nima farqi bor degan savolni berar ekanmiz, bu yerda qonun va qonunosti hujjatining bir-biridan mutlaqo alohida tushuncha ekanligini anglaymiz.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yoki Fuqarolik huquqi va Fuqarolik protsessual huquqining nima farqi bor degan mazmunda savol berishimiz sababi – ushbu huquq sohalari bir-biridan mutlaqo alohida huquq sohalari ekanligidadir. Bitim va shartnomaning farqi nima deb savol berganimizda esa bunday holat kuzatilmaydi. Ya’ni bu holatda mazkur ikki tushunchalar bir-biriga nisbatan alohida tushunchalar emas, balki deyarli bitta tushunchadir. Shartnoma degan so‘zni tilga olar ekanmiz, bir vaqtning o‘zida bitim haqida ham gapiroyotgan bo‘lamiz. Bitim degan so‘zni tilga olayotganimizda umumiy ma’noda shartnoma haqida ham gapiroyotgan bo‘lamiz. Bundan shu ma’no keladiki biz bitim va shartnomaning o‘rtasida nima farq bor deb savol berganimizda bitim va bitim o‘rtasida nima farq bor yoki shartnoma va shartnoma o‘rtasida nima farq bor deb savol berayotgan bo‘lamiz. Ya’ni aslida ikkita bir xil narsaning farqini so‘rayotgan bo‘lamiz. Bu xuddi go‘sht va mol go‘shtining nima farqi bor degan savolga o‘xshaydi. Xo‘s sh bu savolning muqobilida qanaqa savol taklif qilsa bo‘ladi? Har qanday shartnoma – bu bitim, lekin har qanday bitim bu shartnoma emas. Shartnoma deb atalishi mumkin bo‘lgan har qanday hujjat bu bir vaqtning o‘zida bitim hisoblanadi. Agar ular bir-biridan alohida mustaqil tushuncha bo‘lganida edi, u holda bitim va shartnomaning nima farqi bor degan savolni berish mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lar edi. Ushbu holatda savolni boshqacharoq qilib berish maqsadga muvofiq: “shartnoma ko‘rinishidagi bitim va shartnoma ko‘rinishida bo‘limgan bitimning nima farqi bor?” yoki “shartnoma va boshqa bitimlarning nima farqi bor?” degan mazmunda berish to‘g‘ri bo‘ladi. Ana shundagina savol mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz lozimki, har qanday ikki taraflama yoki ko‘p taraflama bitimlar ham shartnoma hisoblanmaydi. Masalan, sud jarayonida tuziladigan kelishuv bitimi, mediatsiya qo‘llash to‘g‘risidagi kelishuv, shartnomalarni bajarishga qaratilgan og‘zaki kelishuvlar shular jumlasidandir. Bitimlarni tasniflashda ularni turlarga bo‘lish amaliyoti mavjud. Masalan, real va konsensual, bir taraflama va ikki taraflama, haq baravariga va tekinga va hokazo. Mazkur usulda bitimlarni tasniflashda yana bir mezonga ko‘ra turlarga bo‘lish maqsadga muvofiq. Ya’ni taklif quyidagicha: bitimlarni yana quyidagicha turlarga

bo‘lishimiz mumkin:

- Shartnoma ko‘rinishidagi bitimlar;
- Shartnoma ko‘rinishida bo‘limgan boshqa bitimlar.

Bitimlarni ushbu ko‘rinishda tasniflash shartnomalar va boshqa bitimlar o‘rtasidagi aniq chegarani belgilab olishga yordam beradi.

Shu o‘rinda yuqorida o‘rtaga tashlangan savolga javob berib o‘tishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bitim va shartnoma o‘rtasidagi aloqadorlikni bilishning qanday amaliy ahamiyati bor? Masalan, Fuqarolik kodeksining 480-moddasiga ko‘ra, ko‘chmas mulkni sotish shartnomasining shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga sabab bo‘ladi. Ushbu holatda agar shartnoma haqiqiy bo‘lmasa, uning oqibatida ikki tarafdan birining zarar ko‘rish ehtimoli bor. Ushbu holatda shartnoma haqiqiy emasligining oqibatini qo‘llash lozim bo‘ladi. Ammo Fuqarolik kodeksining hech qaysi o‘rnida shartnomaning haqiqiy emasligi nomidagi modda yoki bobni uchratmaymiz. Demak, sirdan olib qaraganda Fuqarolik huquqida bo‘shliq mavjuddek ko‘rinadi, lekin aslida unaqa emas. Fuqarolik kodeksida “Bitimlarning haqiqiy emasligi” degan paragraph bor. Shartnomaning haqiqiy emasligi bilan bog‘liq nizolarda uning haqiqiy emasligi oqibatlarini to‘g‘ri qo‘llash uchun huquqshunos, talaba yoki oddiy fuqaro shartnoma va bitim aslida bitta tushuncha ekanligini, faqat bitim deganda shartnomadan boshqa yana bir qancha harakatlar tushunilishini anglab yetishi kerak. Bitim va shartnomaning farqi nima degan savol esa shaxsda yuqorida ta’kidlanganidek, bitim va shartnoma ikki xil bir-biridan mustaqil tushuncha degan fikrni shakllantirib qo‘yadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bitim va shartnomalarning o‘xhash va farqli jihatlarini bilish amaliyotda ular bilan ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mavzu yuzasidan fikr yuritish jarayonida quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

Birinchidan, bitim va shartnoma deyarli bir xil tushuncha, bitim haqida gapirayotganda ko‘pincha shartnoma haqida ham gapirayotgan bo‘lamiz.

Ikkinchidan, har qanday shartnoma bu bitim, lekin har qanday bitim ham

shartnoma emas.

Uchinchidan, bitimlarni tasniflashda bitimlarni turlarga bo‘lishning yangi mezonini ilm-fanga joriy etish maqsadga muvofiq. U quyidagicha bo‘ladi: shartnoma ko‘rinishidagi bitimlar va shartnoma ko‘rinishida bo‘lmagan bitimlar (yoki boshqa bitimlar desa ham bo‘ladi)

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.10.2023 y., 03/23/871/0797-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi “Birjalar va birja faoliyati to‘g‘risida” gi Qonuni (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son)
3. Koryog‘diyev B. Bitimlar. O‘quv qo‘llanma// - T.: TDYU. – 2022 145 bet
4. O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida” gi Qonuni, (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03/21/683/0375-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son)
5. *Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism. Mualliflar jamoasi. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 311 bet*